

YIRIK AGLOMARATSIYALARNING VUJUDGA KELISHI VA ULARNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI

Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li

TDSHU doktoranti va TMII assistenti

m.shokhrukh@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-2722-3231>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola yirik shahar aglomeratsiyalarning shakllanish jarayonlari, ularning vujudga kelish omillari hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi rolini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida aholi soni jihatidan dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalar asosiy obyekt qilib olingan. Maqolada tarixiy-taqqoslash, statistik tahlil, sistema yondashuvi va makroiqtisodiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Empirik ma'lumotlar jahon banki, BMT va milliy statistika organlari ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. Dunyoning turli mintaqalarida joylashgan yirik aglomeratsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotlarga ta'siri ochib o'rganilgan. Tadqiqotning yakuniy qismida tahlillar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqarilgan.

Kalit so'zlar: Aglomeratsiya, urbanizatsiya, shaharsozlik, aholi, yalpi ichki maxsulot, iqtisodiyot, ishchi kuchi.

АННОТАЦИЯ

Данная статья направлена на комплексный анализ процессов формирования крупных городских агломераций, факторов их возникновения, а также их роли в экономическом развитии страны. В ходе исследования в качестве основного объекта были взяты крупнейшие агломерации мира по численности населения. В статье использованы методы историко-сравнительного, статистического анализа, системного подхода и макроэкономического анализа. Эмпирические данные проанализированы на основе информации Всемирного банка, ООН и национальных статистических органов. Раскрыто и изучено влияние крупных агломераций, расположенных в различных регионах мира, на национальные экономики. В заключительной части исследования на основе анализов разработаны выводы и предложения.

Ключевые слова: Агломерация, урбанизация, градостроительство, население, валовой внутренний продукт, экономика, рабочая сила.

ABSTRACT

This article is aimed at comprehensive analysis of the formation processes of large urban agglomerations, the factors of their emergence, as well as their role in the economic development of the country. During the research process, the world's

largest agglomerations by population size were taken as the main object of study. The article employs historical-comparative, statistical analysis, systems approach, and macroeconomic analysis methods. Empirical data were analyzed based on information from the World Bank, UN, and national statistical agencies. Large agglomerations located in various regions of the world and their impact on national economies have been explored and studied. In the final part of the research, conclusions and recommendations were developed based on the analyses.

Keywords: Agglomeration, urbanization, urban planning, population, gross domestic product, economy, labor force.

KIRISH

Mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi uchun eng muhim jihatlardan biri undagi aglomeratsiyalarning qay darajada tarqqiy etganligidir. Mintaqa iqtisodiy transformatsiyasida aglomeratsiyalarning o'zni bilishimiz uchun bir necha mamlakatlardagi aglomeratsiyalarning imkoniyatlari va faoliyatini o'rganib chiqishimiz kerak bo'ladi. Mamlakatlardagi shaharlarning turmush darajasini aniqlashda aglomeratsiyalarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hududda klasterlarning mavjudligi, transport tizimining takomillashtirilganligi va ularning o'zaro manfaatdorlik darajasi hosildorlikning oshishiga va iqtisodiy samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. 1980-yillarda axborot telekommunikatsiya texnologiyalari jismoniy yaqinlikka bo'lgan ehtiyojni bir muncha kamaytirgandek bo'ldi. Buning natijasida esa aglomeratsiyalarga bo'lgan ehtiyoj bir muncha susaydi. Aglomeratsiyalarga bo'lgan ehtiyojning kamayishi bu- markaziy shaharlarning mavjud emasligi va iqtisodiyotning markazlashmaganidan dalolat berardi. Biz hozir to'liq axborot iqtisodiyoti davrida yashayapmiz. Smartfonlar, avtomobillar, binolar va jihozlarning o'zaro aloqasi internet tarmog'i orqali amalga oshmoqda. Shu bilan bir qatorda shaharlarda tirbandlik ortib borishiga qaramay ba'zi shahar markazlarining qayta paydo bo'lishi va AQSh misolida megapolislarning o'sishi davom etayotganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi¹.

Metodologiya

Tadqiqot metodologiyasi sifatida mamlakatlar yirik aglomeratsiyalrini taqqoslash uchun jadval-tahlil usulidan foydalanilgan. Bunda aholi soni bo'yicha jahonning eng yirik aglomeratsiyalari tanlab olining jadval asosida taqqoslab tahlil qilingan. Aglomeratsiyalarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini o'rganish uchun makroiqtisodiy tahlil amalga sohirilgan.

¹ Genevieve Giuliano, Sanggyun Kang, Quan Yuan. Agglomeration economies and evolving urban form. The Annals of Regional Science (2019) 63:377-p. <https://doi.org/10.1007/s00168-019-00957-4>

Muhokama va natijalar

Yirik metropoliyalar, innovatsiyalar va yuqori iqtisodiy o'sish manbai sifatidagi dastlabki o'rganishlarni bir necha asr avval Adam Smit (1776) boshlab bergan. Uning fikriga ko'ra hududning daromadi unda ishlab chiqariladigan maxsulotlarga bog'liq. Maxsulotning tan narxi esa ishchi kuchi, kapital va ijara haqiga bog'liq². Chuki shu davrda asosan qishloq xo'jaligi asosiy maxsulot manbai bo'lib xizmat qilgan. Undan keyin esa, aniqrogi 1890-yillarda Alfred Marshal tomonidan yanada chuqurroq o'rganadi. Uning ta'kidlashicha "Insonlar faqat kommunal maxsulotlar ishlab chiqargani kabi, faqatgina shu maxsulotlarni iste'mol qila oladi. Insonlar turli xizmatlar va nomoddiy maxsulotlar ishlab chiqarishi mumkin, lekin bu ishlab chiqarish ma'lum bir yoki bir necha kommunal maxsulotlarga qo'shimcha ishlov berilishi natijasida yaratilgan insonlar ehtiyojini qondirishga xizmat qiladiga materiyadir. Murakkab texnologiyalar yaratilishi natijasida biz vaqt deb ataydigan unsur yo'q qilinishda davom etaveradi"³. Ular to'plagan dalillar ixtisoslashuv, oraliq yetkazib beruvchilarning almashinuvi va bilimning almashinuvini o'z ichiga olgan. Bularning barchasi tig'iz shaharlarda joylashgan korxonalar va aholi o'rtasida amalga oshirilgan.

O'tgan asrning 3-choragiga kelib bir necha iqtisodchi va geograf olimlar jumladan Vebber (1968), Paskal (1987) va Fati (1991) lar shaharlarning o'ta zichligi natijasida ularning parchalanishini prognoz qilishgan. Buning natijasida XX asrning so'nggi 10 yilligida aglomeratsiyalarning kamayish tendentsiyasi kuzatila boshlandi. Bunga asosiy sabab deb iqtisodiyotning markazlashmaganligi va markaziy shaharlarning kamligini Dorn (1997), Glaeser (2001) va boshqalar o'zlarining tadqiqotlari natijasida xulosa qilishadi. Agalver (2012) olib borgan tadqiqoti natijasida shuni ilgari suradiki, tez orada aglomeratsiyalar ikkiga bo'lingan holda: metropoliten va submetropoliten ko'rinishida bo'ladi. Bunda aglomeratsiyalarning polisentrik shajkllanishi ham hisobga olingan⁴.

Aglomeratsiya iqtisodiyoti davrlar davomida bir necha to'siqlarga duch kelgan bo'lib ulardan biri 1980-yillarda ommaviy tus olgan axborot telekommunikatsiya inqilobi hisoblanadi. Bu davrda faoliyat olib borgan olim Caincross (1997) ning fikriga ko'ra "death of distance" (masofa o'limi) degan ibora iqtisodiyotga kirib keldi. Bunda masofalarning yaqinlashishi ya'ni telekommunikatsiyaning rivojlanishi

² Adam Smith AN INQUIRY INTO THE NATURE AND CAUSES OF THE WEALTH OF NATIONS The Electronic Classics Series, Jim Manis, Editor, PSU-Hazleton, Hazleton, PA 18202. 2005. P 230-231. <https://www.rrojasdatabank.info/Wealth-Nations.pdf>

³ Alfred Marshall, Principles of Economics (8th ed.) LIBERTY FUND, INC. 8335 Allison Pointe Trail, Suite 300 Indianapolis, Indiana 46250-1684. generated September, 2011. P 45-46. <https://oll.libertyfund.org/title/marshall-principles-of-economics-8th-ed>

⁴ Genevieve Giuliano, Sanggyun Kang, Quan Yuan. Agglomeration economies and evolving urban form. The Annals of Regional Science (2019) 63:379-p. <https://doi.org/10.1007/s00168-019-00957-4>

natijasida masofalarning qisqarishi hattoki yo‘q bo‘lishiga olib keldi. Buning natijasida aglomeratsiyalarning parchalanishi haqidagi gipotezalar paydo bo‘la boshladi. 1996-yilda olim Mitchel o‘zining “City of Bits” (Bits shahri) kitobida parchalangan va tarqoq metropoliyalarni bashorat qilgan edi. Ikkinchi tomondan qaraydigan bo‘lsak Gottman (1982) va Gillespie (1992) larning izlanishlari natijasida bergan xulosalariga qaraydigan bo‘lsak “axborot sektori aglomeratsiyalarning o‘lishiga xizmat qiladi” kabilarni ko‘rishimiz mumkin.

Aglomeratsiya iqtisodiyotini pasayib borayotganini quyidagi dalilalar asosida ko‘rishimiz mumkin:

- 1- AKTning jismoniy qobiliyatning o‘rnini bosish qobiliyatining oshishi
- 2- Axborotga asoslangan iqtisodiyotga o‘tish
- 3- Transport xarajatlarining kamayishi.

Bundan kelib chiqadiki agar ma’lumotlarni virtual almashish imkoni bo‘lsa yuzma-yuz ko‘rishishga xojat qolmaydi. Vaqt o‘tishi bilan korxoanalar yanada qulayroq hududlarni kamroq xarajatlarni asosida egallashlari mumkin bo‘ladi. AKT bergan imkoniyatlar asosida kichikroq hududlarni yetarli bo‘lishi, kamroq ishchilarga ehtiyoj sezishi kabilarni natijasida xarajatlarni kamaytirish imkoni paydo bo‘ladi. 1970-1980 yillarda aholi va ish o‘rinlarining suburbanizatsiyasi natijasida aglomeratsiyalar rivojlanishini pasayish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Glaeser (2001) va Audirak (2005) larni fikriga ko‘ra AKT rivojlanish tendensiyasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Ikkinchi tomondan AKT rivojlanishi natijasida yuzma-yuz uchrashuvlar kamayishi natijasida ma’lum bir xarajatlarning kamayishiga olib keladi. Uchinchi tomondan XX asr davomida transport xarajatlarining kamayishi doimiy ravishda amalga oshirishining asosiy sabablaridan biri AKT bo‘lgan deyishimiz mumkin. Myuller (2017) ning fikriga ko‘ra transport xarajatlarining pasayishi shaharlar zichligining pasayishi bilan bog‘liq.


Yirik aglomeratsiyalar, bir nechta shahar va ularning yaqin mintaqalari tomonidan tashkil etilgan katta iqtisodiy va demografik markazlardir. Bu aglomeratsiyalar, kengayuvchan iqtisodiy faoliyat, infrastruktur tarmoqlari, tijorat, sanoat va xizmat sohasida konsentratsiyaga ega bo‘lib, iqtisodiy transformatsiyani kuchaytirishda kritik ahamiyatga ega.

Aglomeratsiyalar iqtisodiy jihatdan ma’lum bir korxonalarning hamkor korxonalar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarini nazarda tutadi. Agar korxonalarning aholi bilan o‘zaro aloqalari yuzaga kelishi va ularni hudud nuqtai nazardan o‘rganish asosiy masalalardan biriga aylansa, bunda aglomeratsiyalarning geografik omili muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun biz ikkalasini umumlantirib korxonalar

va aholi o'rtasidahi uzviy bog'liqlik asosida doimiy to'xtovsiz harakatlarning shakllanishi aglomeratsiyalarda namoyon bo'lishi kerak deb hisobladik. Chunki faqat iqtisodiy tomondan qaraydigan bo'lsak aglomeratsiyalar klasterlarga o'shab qoladi. Agar faqat geografik jihatdan qaraydigan bo'lsa shahar yoki viloyat maqomi bilan o'xshash bo'lib qolmoqda. Mazkur omillarni inobatga olib uni ham iqtisodiy ham geografik asosga ega bo'lgan urban aglomeratsiyasi deb nomlash fikriga qo'shildik.

1-rasm

**Aholi soni bo'yicha dunyodagi eng yirik shahar aglomeratsiyalari
2025-yil 1-yanvar holati (ming kishi)⁵**



Aglomeratsiyalarda mehnat va yetkazib berish bozori katta va diversifikatsiyalangan bo'lsa, ish beruvchi va xodimlar o'rtasida yaxshiroq va osonroq moslashuv jarayoni amalga oshadi. Ishchilarning qulay ish jarayoni natijasida ularning ish vaqtini oshirish, o'qitish xarajatlarini kamaytirish kabi yutuqlarga erishish mumkin bo'ladi. Maxsulotni iste'molchiga yetib borishini ta'minlaydigan oraliq tashish xizmati yuqori darajada tashkil qilinishi va ular o'rtasidagi sog'lom raqobatning yuzaga kelishi natijasida maxsulotning narxi bir muncha arzon va sifatliroq holatda iste'molchiga yetib borishiga asos bo'ladi. Misol tariqasida shuni olishimiz mumkinki aholining eng yuqori ziyoli qatlami asosan zich shaharlarda istiqomat qiladi. Bu tarkibga universitet professorlarini olishimiz mumkin. Bunga proportsional ravishda esa yoshroq olimlar nisbatan harakatchan bo'lganliklari sababli shahar chetlarini yashash uchun qulay deb hisoblaydilar. Chunki ular

⁵ <https://www.citypopulation.de/en/world/agglomerations/>

energetik ish jarayoni asosida faoliyat yuritishadi. Yuqorida sanab o'tgan omillarimizni inobatga olib 2.1.1-rasm orqali aholi soni bo'yicha jahondagi eng yirik aglomeratsiyalarni ko'rib chiqdik. Bu jadval orqali biz jahondagi eng ko'p aholiga ega bo'lgan aglomeratsiyalar bu Xitoyning Guanjou va Shanxay aglomeratsiyalari ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ularning 2025-yildagi aholi soni mos ravishda 70 va 40 milliondan ortiqni tashkil qilmoqda. Yaponiyaning Tokio megapolisi esa dunyodagi uchinchi aglomeratsiya hisoblanadi. Bu hududda mamlakat jami aholisining deyarli chorak qismi istiqomat qiladi. Tokio aglomeratsiyasi dunyodagi eng zich aholi maskanlaridan biri hisoblanadi. 40 mlndan ortiqroq aholi soni bilan esa Xitoyning Shanhai aglomeratsiyasi jahon reytingida Tokiodan keying o'rinni egallab turibdi. Undan keying o'rinlarni esa mos ravishda Delhi, Guanchou va Mumbai aglomeratsiyalari band qilib turibdi. 1-rasmdagi keltirilgan aglomeratsiyalar ichida yevropa qita'si vakillari yo'q. Chunki ulardagi mavjud aglomeratsiyalarning iqtisodiy salohiyati yuqori lekin, aholi soni nuqtai nazaridan sezilarli darajada kam hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Aglomeratsiyalar rivojlanishini mintaqaviy muvozanat kontekstida rejalashtirish zarur. Qattiq ekologik talablar va "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish. Jamoat transporti tizimini rivojlantirish va trafik tirbandliklarini kamaytirish. Yirik aglomeratsiyalar XXI asrda ham global iqtisodiyotning muhim elementi bo'lib qoladi. Ularning to'g'ri rivojlanish strategiyasi nafaqat mahalliy, balki milliy va xalqaro darajada iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy tengsizlik, ekologik muammolar va mintaqaviy nomutanosibliklarni hal qilish zamonaviy aglomeratsiya siyosatining asosiy vazifalari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Glaeser, E. L. (2011). *Triumph of the City: How Our Greatest Human Invention Makes Us Richer, Smarter, Greener, Healthier, and Happier*. Penguin Press.
2. Florida, R. (2017). *The New Urban Crisis: How Our Cities Are Increasing Inequality, Deepening Segregation, and Failing the Middle Class*. Basic Books.
3. World Bank. (2023). *World Development Indicators*. Washington, DC: World Bank Group.
4. United Nations. (2022). *World Urbanization Prospects: The 2022 Revision*. New York: UN Department of Economic and Social Affairs.
5. OECD. (2023). *OECD Metropolitan Areas Database*. Paris: OECD Publishing.
6. Duranton, G., & Puga, D. (2020). The economics of urban density. *Journal of Economic Perspectives*, 34(3), 3-26.

7. Rosenthal, S. S., & Strange, W. C. (2004). Evidence on the nature and sources of agglomeration economies. *Handbook of Regional and Urban Economics*, 4, 2119-2171.
8. Henderson, J. V. (2003). Marshall's scale economies. *Journal of Urban Economics*, 53(1), 1-28.
9. Krugman, P. (1991). *Geography and Trade*. MIT Press.
10. Jacobs, J. (1969). *The Economy of Cities*. Random House.